



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIYOTDAGI ULUSHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.

Dilafroz Maxkamova

University of Business and Science

Stajor-o'qituvchisi

+998930537671 mahkamova.di@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rnini, uning yalpi ichki mahsulot (YaIM), bandlik, eksport-import operatsiyalari hamda tarmoqlar kesimidagi ulushi kompleks ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2020-2025 yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar asosida kichik biznes rivojlanishining dinamikasi, hududlar kesimidagi tafovutlar va asosiy tendensiyalar aniqlangan. Shuningdek, maqolada kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi roli, uning ustuvor tarmoqlardagi ulushi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy drayveri bo'lib, YaIMning yarmidan ortig'ini shakllantiradi va bandlikni ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bilan birgalikda, sanoat tarmog'ida ulushning pastligi, moliyaviy resurslarga kirishdagi cheklolar va hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklar mavjud muammolar sifatida aniqlangan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, YaIM, iqtisodiy o'sish, bandlik, investitsiya muhiti, hududiy rivojlanish, iqtisodiy islohotlar, O'zbekiston iqtisodiyoti

Kirish. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim segmenti hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda ushbu sektor iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining daromadlarini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda mustaqillikdan keyingi davrda kichik biznesni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi iqtisodiy islohotlar natijasida biznes yuritish sharoitlari sezilarli darajada yaxshilandi. Natijada kichik biznes subyektlari soni ortib, ularning iqtisodiyotdagi ulushi kengaygan hisoblanadi. Bugungi kunda kichik biznes: YaIMning asosiy qismini shakllantiradi; Bandlikning kata qismini ta'minlaydi; Ichki bozorni Tovar va xizmatlar bilan to'ldiradi. Shu sababli kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini chuqur o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot bir qator usullarda asoslangan. Ular O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi hamda rivojlanish tendensiyalarini kompleks baholash maqsadida turli ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli tahlil, statistik baholash va iqtisodiy jarayonlarni dinamik o'rganishga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi-kichik biznesning O'zbekiston iqtisodiyotidagi ulushini aniqlash, uning rivojlanish dinamikasini baholash va asosiy tendensiyalarni tahlil.

qilishdan iborat. Ushbu maqsadga kichik biznesning YaIMdagi ulushini aniqlash va baholash, bandlik va tarmoqlar kesimida ulushini tahlil qilish, hududlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash, rivojlanish tendensiyalarini baholash va mavjud muammolarni aniqlab, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari, advlat iqtisodiy hisobotlari, Xalqaro tashkilotlar(World Bank, International Monetary Fund) ma'lumotlari, ilmiy maqolalar va tahliliy materiallardan foydalanildi. Ular asosan 2020-2025-yillar oralig'ini qamrab oladi, bu esa pandemiyadan keying iqtisodiy tiklanish jarayonlarini ham qamrab olgan.

Natijalar. Tadqiqot ishida quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: ular statistik usul, davlat statistika ma'lumotlari asosida ko'rsatkichlar dinamikasi o'rganildi, statistic ma'lumotlar asosida ulush, o'sish sur'ati va dinamik o'zgarishlar hisoblab chiqildi; taqqoslash usuli, yillar kesimida kichik biznes ulushi solishtirildi, ular o'rtasidagi farqlar izohlandi; strukturaviy tahlil, tarmoqlar va hududlar bo'yicha ulushlar aniqlanib, ularning farqlari tahlil qilindi va iqtisodiy tuzilmaning o'ziga xos xususiyatlari aniqlashtirildi; trend tahlili, o'sish tendensiyalari va rivojlanish yo'nalishlari aniqlandi; analitik, olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi. Ushbu jadvalda 2020–2025 yillar davomida YAIMdagi ulushning o'zgarish dinamikasi aks ettirilgan. Unda ko'rinishicha, ayrim yillarda ushbu ko'rsatkichning oshishi kuzatilgan bo'lsa, boshqa yillarda esa pasayish holatlari qayd etilgan. Davr davomida o'zgarishlar barqaror emasligi, ya'ni ko'rsatkichlar bir maromda emas, balki tebranishlar asosida rivojlanganini ko'rish mumkin. Umuman olganda, YAIMdagi ulush dinamikasi o'sish va kamayish jarayonlarining almashib borishi bilan tavsiflanadi

1-jadval.

YaIMdagi ulushi dinamikasi

Yil	YaIMdagi ulushi	O'sish sur'ati
2020	52.8	---
2021	54/99	+2.1
2022	51.8	-3.1
2023	51.2	-0.6
2024	54.3	+3.1
2025	51.5	-2.8

Keltirilgan jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi so'nggi yillarda barqaror ravishda yuqori darajada saqlanib qolmoqda. 2020–2025 yillar oralig'ida ushbu ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lib, iqtisodiyotda kichik biznesning ustuvor rol o'ynayotganligini tasdiqlaydi. Ayrim yillarda pasayish holatlari kuzatilgan bo'lsa-da, bu asosan tashqi iqtisodiy omillar va pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlari bilan izohlanadi. Umuman olganda, dinamikada keskin tebranishlar kuzatilmaydi, bu esa sektorning nisbatan barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi. Ushbu jadvalda 2020–2025 yillar davomida bandlikdagi ulushning o'zgarishi aks ettirilgan. Unda ko'rinishicha, mazkur davr

mobaynida bandlikdagi ulush izchil ravishda oshib borgan. Har bir keyingi yilda ko'rsatkichning oldingi davrga nisbatan ortib borishi ijobiy tendensiyani ifodalaydi. Umuman olganda, bandlikdagi ulushning barqaror o'sishi iqtisodiyotda ish bilan ta'minlash darajasining yaxshilanib borayotganini ko'rsatadi

2-jadval.

Bandlikdagi ulushi

Yil	Bandlikdagi ulushi(%)
2020	74.5
2022	75.8
2024	76.3
2025	76.7

Bandlik ko'rsatkichlari tahlili kichik biznesning mehnat bozorida ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznesda band bo'lganlar ulushi yil sayin ortib bormoqda va 2025-yilga kelib 76 foizdan oshgan. Bu esa ushbu sektor aholi daromadlarini shakllantirishda asosiy manba ekanligini bildiradi. Shu bilan birga, bu holat iqtisodiyotda yirik korxonalarining bandlik yaratishdagi ulushi nisbatan past ekanligini ham ko'rsatadi. Ushbu jadvalda tarmoqlar kesimida ulush ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Unda ko'rinishicha, eng yuqori ulush qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri keladi, bu esa ushbu tarmoqning iqtisodiyotdagi yetakchi o'rinni egallashini bildiradi. Qurilish sohasida ham ulush nisbatan yuqori bo'lib, uning iqtisodiy faoliyatdagi ahamiyati katta ekanini ko'rsatadi. Savdo va xizmatlar sohasida ulush o'rtacha darajada bo'lib, bu tarmoqning barqaror rivojlanayotganini anglatadi. Sanoat sohasida esa ulush boshqa tarmoqlarga nisbatan pastroq bo'lib, bu uning iqtisodiyotdagi hissasi nisbatan kamroq ekanini ko'rsatadi. Umuman olganda, jadval tarmoqlar o'rtasida ulushlarning notekis taqsimlanganini va ayrim sohalarning ustunligini ifodalaydi.

3-jadval

Tarmoqlar kesimida ulushi

Tarmoq	Ulushi(%)
Qishloq xo'jaligi	96-97
Qurilish	75-78
Savdo va xizmatlar	40-45
Sanoat	21-26

Tarmoqlar kesimidagi tahlil kichik biznesning iqtisodiyot tarkibidagi nomutanosib rivojlanishini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligida kichik biznes ulushi deyarli to'liq ustunlikka ega bo'lib, bu sektorning an'anaviy ravishda kichik xo'jaliklar asosida tashkil etilganligi bilan izohlanadi. Qurilish sohasida ham yuqori ulush kuzatiladi, bu esa kichik pudratchilar faoliyati keng tarqalganini bildiradi. Biroq sanoat tarmog'ida ulushning pastligi iqtisodiyotning

sanoatlashtirish darajasi yetarli emasligini ko'rsatadi. Bu holat kichik biznesni yuqori qo'shilgan qiymatli sohalarga jalb qilish zarurligini anglatadi. Quyidagi jadvalda hududlar kesimida ulush ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan. Unda ko'rinishicha, ayrim hududlarda ulush nisbatan yuqori bo'lib, bu ularning iqtisodiy faoliyati va rivojlanish darajasi yuqoriligini anglatadi. Xususan, Surxondaryo va Samarqand hududlarida ulush yuqori darajada ekani kuzatiladi, bu esa ushbu hududlarning yetakchi o'rin egallashini ko'rsatadi. Jizzax hududida ko'rsatkichlar o'rtacha darajada bo'lib, barqaror rivojlanish tendensiyasini ifodalaydi. Navoiy hududida esa ulush ancha past bo'lib, bu uning boshqa hududlarga nisbatan iqtisodiy faolligi pastroq ekanini bildiradi. Umuman olganda, jadval hududlar o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini va ularning rivojlanish darajasi bir xil emasligini ko'rsatadi

4-jadval
Hududiy tahlil


Hudud	Ulushi (%)
Surxondaryoq	74-75
Samarqand	70-72
Jizzax	68-70
Navoiy	25-27

Hududlar kesimida kichik biznes ulushining sezilarli darajada farqlanishi mamlakatda iqtisodiy rivojlanishning notekisligini ko'rsatadi. Masalan, Surxondaryo va Samarqand viloyatlarida yuqori ulush kuzatilsa, Navoiy viloyatida bu ko'rsatkich ancha past. Bu tafovutlar hududlarning tabiiy resurslari, infratuzilma darajasi, investitsiya jozibadorligi va sanoatlashuv darajasi bilan bog'liq. Ayniqsa, sanoat rivojlangan hududlarda yirik korxonalar ulushi yuqori bo'lgani sababli kichik biznes ulushi nisbatan past bo'ladi. Quyidagi jadvalda 2020–2025 yillar davomida kichik biznes subyektlari sonining o'sish dinamikasi ko'rsatilgan. Unda ko'rinishicha, ushbu davr mobaynida kichik biznes subyektlari soni izchil ravishda oshib borgan. Har bir keyingi yilda subyektlar sonining ortishi, iqtisodiyotdagi tadbirkorlik faoliyatining kengayib borayotganini va kichik biznesning barqaror rivojlanishini ifodalaydi. Umuman olganda, jadval kichik biznesning o'sish tendensiyasini va uning iqtisodiyotdagi ahamiyatining ortib borayotganini ko'rsatadi

5-jadval
Kichik biznes subyektlari soni

Yil	Subyektlar soni (mingta)
2020	950
2022	1050
2024	1150
2025	1210





Kichik biznes subyektlari sonining yildan-yilga ortib borishi mamlakatda tadbirkorlik muhiti yaxshilanayotganini ko'rsatadi. Yangi tashkil etilgan korxonalar sonining ko'payishi davlat tomonidan yaratilgan imtiyozlar, soliq yengilliklari va ro'yxatdan o'tish jarayonining soddalashtirilganligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, subyektlar sonining o'sishi ularning samaradorligi ham oshmoqda degani emas, shuning uchun kelgusida sifat ko'rsatkichlariga ham e'tibor qaratish zarur.

Muhokama. Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, kichik biznes O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo'lgan sektor hisoblanadi. Uning yalpi ichki mahsulotdagi yuqori ulushi va bandlikni ta'minlashdagi yetakchi roli iqtisodiy tizimda muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. Ayniqsa, kichik biznesning moslashuvchanligi va tezkorligi uni iqtisodiy o'zgarishlarga nisbatan barqaror sektor sifatida namoyon qiladi. Shu bilan birga, tahlillar kichik biznes rivojlanishida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Xususan, sanoat tarmog'ida kichik biznes ulushining pastligi iqtisodiyotning yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini cheklamoqda. Bundan tashqari, hududlar o'rtasidagi keskin tafovutlar mamlakatda iqtisodiy resurslar va imkoniyatlarning notekis taqsimlanganligini bildiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat natijalari kichik biznesning eksport salohiyati yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Bu esa global bozorlarga chiqish uchun zarur bo'lgan texnologik va institutsional sharoitlarning yetarli emasligi bilan bog'liq. Shu sababli eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, kichik biznesning rivojlanish tendensiyalari ijobiy baholanadi, biroq uning samaradorligini oshirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatini yanada takomillashtirish talab etiladi. Xususan, kichik biznesni sanoat sohasiga keng jalb qilish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va moliyaviy resurslarga kirishni yaxshilash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. O'zbekistonda kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining tayanch ustunlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat yalpi ichki mahsulotning katta qismini shakllantiradi, balki aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni oshirish va o'rta sinfni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, kichik biznes iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududlar rivojlanishini rag'batlantirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Kelgusida ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun bir qator ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Avvalo, kichik biznesning sanoatdagi ulushini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va qo'shilgan qiymat zanjirida faol ishtirok etishni ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Natijada iqtisodiyotning samaradorligi oshadi va importga qaramlik kamayadi. Shuningdek, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish zarur. Kichik biznes subyektlari uchun arzon kreditlar, subsidiyalar, grantlar va investitsiya dasturlarini ko'paytirish ularning barqaror faoliyat yuritishiga yordam beradi. Bank tizimi va moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali tadbirkorlarning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash muhimdir.

Hududiy nomutanosiblikni kamaytirish ham dolzarb vazifalardan biridir. Qishloq joylar va kam rivojlangan hududlarda kichik biznesni rivojlantirish uchun infratuzilmani yaxshilash, logistika tizimini rivojlantirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish zarur. Bu esa hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutni qisqartirib, umumiy rivojlanishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, eksport salohiyatini oshirish kichik biznesning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Mahsulot va xizmatlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish uchun sifat standartlarini joriy etish, marketing va logistika ko'nikmalarini rivojlantirish, eksportga yo'naltirilgan korxonalarni rag'batlantirish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, kichik biznesni kompleks qo'llab-quvvatlash va yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha tizimli islohotlarni amalga oshirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va uzoq muddatli o'sishini ta'minlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. World Bank. (2023). *Small and Medium Enterprises (SME) Finance and Development Report*.
2. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2022). *SME Policy Index: Eastern Partner Countries*.
3. International Monetary Fund. (2023). *Uzbekistan Country Report*.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kichik biznesni rivojlantirishga oid qarorlari.
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plam*.
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). *Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari bo'yicha hisobot*.
9. O'lmasov A.. (2020). *Iqtisodiyot nazariyasi*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
10. Shodmonov Sh.. (2021). *Iqtisodiyot nazariyasi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
11. Abdullayeva Z.. (2022). *Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.
12. Rasulov A.. (2021). *O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish yo'nalishlari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
13. United Nations Development Programme. (2022). *Private Sector Development in Uzbekistan*.
14. International Finance Corporation. (2021). *SME Development in Central Asia*.